

SOF KO'MAKCHILARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Tursunov Jaxongir Panjixonovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrası o'qituvchisi

Doniyorova Sevinch

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Ahmadova Anisa

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sof ko'makchilarning semantik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Ko'makchilarni semantik jihatdan tadqiq qilish ularning gapdagi asosiy mazmunini ochishga imkon beradi.*

Kalit so'zlar: *ko'makchi, semantik, til birligi, sof ko'makchilar, funksional.*

O'zbek tilida so'z turkumlari orasida ko'makchilar alohida ajralib turadi. Ular gap bo'laklarini o'zaro munosabatga kiritish, ma'nosini aniqlashtirish, turli sintaktik aloqalarni ifodalashda katta ahamiyatga ega. Xususan, sof ko'makchilar hech qanday leksik ma'no ifodalamay, faqat grammatik vazifani bajaradigan birliklar sifatida tilning sintaktik qurilishida muhim funksional yukni o'z zimmasiga oladi. Tilimizdagi ko'makchilar yordamchi so'z turkumlarining alohida kategoriyasini tashkil qiladi. Ular boshqa (bog'lovchilar, yuklamalar) yordamchi so'z turkumlaridan farqli o'laroq o'ziga qo'shimcha qo'shish, substantivasiyalanish, gap tarkibida hamda turli so'z, so'z birikmalari orasidagi sintaktik munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu grammatik vositalar nutqda turli funksional-stilistik vazifalarni ham ado etadi [4.104-b.]. O'zbek tilidagi ko'makchiga birinchi bo'lib mukammal ta'rifni A.N.Kononov bergan: "Ko'makchilar shunday bir gruppaga so'zlarki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol-vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo'nalish, o'xshatish kabi munosabatning yaratilishida xizmat qiladi". Sh.Shoabdurahmonov ham o'zining "Yordamchi so'zlar" asarida ko'makchiga shunday ta'rif bergan: "Ko'makchi obyektning obyektga yoki obyektning predikatga bo'lgan turli grammatik munosabatini ko'rsatuvchi yordamchi so'zdir". Milliy til rivojlanish jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan ko'makchilar ham tildagi alohida kategoriya sifatida mazmunan boyib, takomillashib, davrga hamohang tarzda me'yorlashib borgan [1.47-50.]. Shuni alohida e'tirof etish joizki, keyingi paytlarda ko'makchilar semantikasi bilan bog'liq maxsus tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shularni hisobga olib, o'zbek tilidagi sof ko'makchilarning semantik xususiyatlari haqida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Sof ko'makchilar atash (leksik) ma'nosini tamoman yuqotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladi. Sof ko'makchilar yordamida predmetlar, harakatlar va holatlarning joy, vaqt, sabab, maqsad, payt, tarz kabi munosabatlari ifodalanadi. Shuningdek, ular ot bilan boshqa o'rtasida bog'lovchi vosita bo'lib, gapning shakillanishiga xizmat qiladi. Ma'lumki,

ko'makchilar ot, olmosh, otlashgan so'z, harakat nomi va sifatdoshdan keyin keladi. Ushbu so'zlar ko'makchi bilan birga qo'llanganda ba'zi kelishik shakllariga ega bo'ladi. Ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: 1. Bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar: bilan, uchun, sari, sayin, singari, kabi, uzra, tufayli, haqida. Masalan, ruchka bilan, yozish uchun, o'tmish sari, kun sayin, hamma singari, men kabi, osmon uzra, duo haqida. 2. Qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar: bilan, uchun, kabi. Masalan, sening bilan, uning uchun, uning kabi. Ushbu ko'makchilar bilan qo'llanishi kerak bo'lgan qaratqich kelishigi qo'shimchasi ko'pincha tushib qoladi. 3. Jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar: ko'ra, binoan, qadar, nisbatan, doir. Masalan, arizasiga ko'ra, fanga doir, sud hukmiga binoan, imtihonga qadar, menga nisbatan. Ko'makchi ma'no jihatdan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadi. Shu sababli kelishik bilan ifodalangan ma'noni ko'makchi orqali ham ifodalash mumkin. O'zbek tilida bilan, kabi, singari, uchun, sari, sayin sof ko'makchilari asosan bosh kelishik shaklidagi so'zlarga bog'lanadi.

Bilan sof ko'makchisi vosita, sabab, birgalik, holat, usul, payt, miqdor, jamlik, holatning nima bilan mavjudligi, fikrning biror voqeaga oidligi, tomon ma'nolarini anglatgan holda so'zlarga bog'lanib gap bo'lagi vazifasida keladi. Bilan ko'makchisi vositali to'ldiruvchi, sabab, maqsad va payt holi kabi gap bo'laklari hosil qilishda muhim hisoblanadi. Jumladan, gapda bilan ko'makchisi bosh kelishik shaklidagi so'zga vosita, birgalik, jamlik ma'no munosabatini bildirish orqali bog'lanib, vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: 1. Uning bo'yniga yoy o'qi tekkan, yarador joyini yashil mato bilan bog'lab olgan edi. 2. Mulla Fazliddin o'sha paytda yolg'iz shogirdi bilan ishlamoqda edi. 3. Kech tushganda karvon orqali yo'lga chiqish haqida akalari bilan maslahatlashdi. Bilan sof ko'makchisi muayyan bir so'zga sabab ma'nosini bildirish orqali bog'lansa gapda sabab holi vazifasida keladi: Qulingizning gustohligini afv eting, begim, men amirzodamning Ijozatlari bilan dilimda borini so'zladim.

Agar bilan ko'makchisi so'zga bog'lanib holat ma'nosini ifoda etsa, unda gapda holat holi vazifasini bajaradi: 1. Darvoza tavaqalari shaxt bilan ochildi. 2. Saida yugurib xonaga kiringach vahima bilan gap boshladi. Gapda bilan sof ko'makchisi bog'langan so'z payt holi vazifasida ham ifodalanadi. Bunda bilan ko'makchisi vaqt, payt ma'nolarini yuzaga chiqarishga ko'maklashadi: Isitma qilgani uchun kechasi bilan yonida o'tirib chiqdi. Uchun ko'makchisi narsa-hodisalardagi atalganlik, xoslik, tegishlilik ma'nolarining shakllanishiga hamda harakat-holatning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi yoki uni amalga oshirishdan maqsad kabilarni yuzaga chiqaruvchi yordamchi vosita vazifasini bajaradigan so'zdir [1.55-56.]. Uchun ko'makchisi tegishlilik, xoslik, sabab va maqsad ma'nolarida qo'llaniladi. Shuningdek, A. Pardayev o'z monografiyasida uchun ko'makchisining qo'llanilishi haqida shunday deydi: 1. Narsaning kimga, nimaga atalganligini, bag'ishlanganligini yoki kimning, nimaning foydasiga bajarilganligini ko'rsatadi. Hamma narsa g'alaba uchun. Ukam uchun kitob sotib oldim. 2. Ish-harakatning nima maqsadda bajarilishini ko'rsatadi. U bu yerga dam olish uchun kelgan. 3. Ish-harakatning bajarilishidagi asos yoki sababni ko'rsatadi. Yormat shahardan piyoda qaytib,

o'lguday horigani uchun, hamma otlarga Yo'lchi qaradi. 4. Fikrning kimga, nimaga nisbatan aytilishini ko'rsatadi. Men uchun turmushda hamma narsa oydin.

R. Sayfullayeva esa uchun ko'makchisini atalganlik, maqsad, sabab, evaz kabi ma'nolarda qo'llanilib, to'ldiruvchi, maqsad, sabab holi vazifasida kelishini ta'kidlaydi: 1. Yo'lchi uchun keltirilgan tugunchak yoniga tushdi (atalganlik). 2. Hamma xalq ochdan o'lmaslik uchun bir amal-taqal qilib turibdi (maqsad). 3. Kampirning ahmoqligi yo dushmaningizning ig'vosi uchun shundoq deyishga qandoq tilingiz bordi (sabab). 4. E'tiboringiz uchun rahmat! Vaqtida xabar berganingiz uchun minnatdor bo'lishim kerak (evaz) [3.219-b.]. Kabi ko'makchisi asosan bir narsani boshqa narsaga o'xshatish, chog'ishtirish ma'nosini anglatadi. Hozirgi o'zbek tilida u faqat sof ko'makchi sifatidagina qo'llanadi. Shuningdek, faqat bosh kelishik shaklidagi so'zlarga birikadi. Ba'zan shu ko'rsatish olmoshining qaratqich kelishigidagi so'z shakliga birikadi. Bu ko'makchi o'zining taraqqiyoti davrida birgina ma'noni, chog'ishtirish ma'nosini, ifodalagan. Hozirgi o'zbek tilida ham xuddi shu ma'noni anglatish xususiyatini saqlab qolgan. Kabi ko'makchisi -gan affiksli sifatdash bilan kelganda holat ma'nosini ham anglatadi [4.43-44.]. Kabi sof ko'makchisi o'xshatish-qiyoslash ma'nosida: 1. U onam kabi mehribon edi. 2. Ertalabdan yosh bolalar kabi to'palon ko'tardi. 3. U menga o'qituvchim kabi o'rgatdi.

Shuningdek, holat ma'nosida: 1. U chuqur o'yga tolgan kabi sukut saqladi. 2. Uning ko'zlari yig'lagan kabi qizarib ketgandi. Qadar ko'makchisi hokim bo'lakka tobelanish munosabatini yuzaga chiqarar ekan, o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, Yo'l tog' etagiga qadar davom etadi. Ular ko'cha boshiga qadar suhbatlashib borishdi. Bundan tashqari qadar ko'makchisi (-ga) jo'nalish kelishigidagi ot va olmosh bilan qo'llanib chegara, nihoya ma'nosini bildiradi: Kutubxona har kuni soat beshga qadar ochiq bo'ladi. Yomg'ir tong otgunga qadar tinmadi. Sayin ko'makchisining asosan ikkita semantik mazmuni bo'lib, birinchisi -gan affiksli sifatdashga qo'shilib, ish-harakatning tobora kuchayib borishi, ikkinchisi vaqtni ifoda etuvchi so'zlar bilan birgalikda kelib, bu yerda ham uning ana shu ma'no kuchayishi yoki takrorlanishi bilan bog'liq [1.78-79.]. Misol uchun: 1. Yil sayin o'sib katta daraxtga aylandi. Har oy sayin savodi yaxshilanib bordi. 2. Osmonga ko'tarilgan sayin hayratim ortib bordi. O'qigan sayin qiziqishim kuchayadi. Sayin ko'makchisi sari ko'makchisi bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi. Masalan, Yashagan sayin qamashadi ko'z. Yashagan sari qamashadi ko'z. Ba'zi holatlarda esa ularni o'zaro almashtirib bo'lmaydi: Axir! Halokat sari borasiz, nahot? Haqida ko'makchisi bosh kelishik shaklidagi otlarga birikib, ish-harakatning ijro etilishidagi manba, asos, atalganlik ma'nosini ifodalaydi [2.85-b.]. Jumladan, U tinmay ilmfan haqida gapirdi. Men bu masala haqida o'ylab ko'rdim. U yigit kelajagi haqida juda ko'p o'ylardi.

Tufayli. T.Rustamov bu ko'makchi haqida A.N.Kononov "Грамматика современного узбекского литературного языка" asarida to'xtalganligi va uning leksik ma'nosini arabcha – "parazit", forsha "yordam", "qo'llab quvvatlash", "o'rtoqlik", "muomala" so'zlariga teng kelishini qayd etganligini yozadi [1.92-b.]. Tufayli ko'makchisining sinonimlik doirasini boshqa birliklar hisobiga ham kengaytirish mumkin. Masalan: Sen tufayli qishloqqa keldim – Sen uchun qishloqqa keldim – Seni deb qishloqqa keldim – Sen

bois qishloqqa keldim. Harakatning umumiy ifodachisi sifatida ular bir-birining o‘rnini bosishi mumkin. Ammo stilistik nuqtai nazardan bu gapni aytib bo‘lmaydi [1.93-b.]. Birinchi gap mamnuniyat mazmuni bor, ikkinchisida pisandalik, keyingisida deb ko‘makchisi qo‘llanilib, fidoyilik ma’nosini ifoda etadi. Xulosa. O‘zbek tili grammtik tizimida ko‘makchilar muhim yordamchi so‘z turkumlaridan biri hisoblanadi. Ular gap bo‘laklari orasidagi semantik va sintaktik munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Sof ko‘makchilar leksik ma’no ifodalamaydi. Ko‘makchilar o‘zgarmaydi (turlanmaydi yoki yasalmaydi). Grammatik vazifani bajaradigan birliklar sifatida sintaktik qurilishda muhim funksional vazifani bajaradi. Sof ko‘makchilar yordamida predmet, harakat va holatning joy, vaqt, sabab, maqsad, payt, tarz kabi munosabatlari ifodalanadi. Ko‘makchilar ma’no va vazifa jihatidan kelishik affikslariga yaqin turadi. Shuning uchun ba’zan kelishik shakllari bilan anglatilgan ma’no ko‘makchi bilan ham ifodalanadi. Lekin ko‘makchilar kelishik affikslariga qaraganda ma’noni aniq, konkret ifodalaydi. Sof ko‘makchilar ifoda etayotgan ma’nosi va birikkan so‘ziga ko‘ra gapda vositali to‘ldiruvchi, maqsad, sabab, payt va holat holi vazifasini bajaradi. O‘zbek tili grammatik qurilishining mustahkam unsurlaridan biri bo‘lib, ularni har tomonlama o‘rganish tilning tizimli tuzilishini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Sof ko‘makchilar, ularning semantik vazifasi, nutqdagi qo‘llanma o‘rni va stilistik imkoniyatlari – bularning barchasi tilning boy grammatik tuzilishga ega ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Пардаев А.Б. Ўзбек тилида кўмакчилар стилистикси. Монография. — Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти. 2008
2. Рустамов Т. Соф кўмакчилар. — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси фанлар академиясининг "Фан" Нашриёти. 1991
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent. 2009
4. Пардаев А.Б. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. Монография. — Самарқанд: СамДУ нашри. 2011